O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 26 - iyun 182-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasiga, boshqarma balansidagi Guliston shahar “Navbahor” MFY hududida joylashgan (sobiq Texnik inventarizatsiya byurosi) “Ma’muriy bino”sini haqiqatda egallagan yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-204-sonli va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 10 va 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasining 2023-yil 13-apreldagi 01-04/1119-sonli xat bilan viloyat hokimiga qilgan murojaati qanoatlantirilsin hamda viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasiga, boshqarma balansidagi Guliston shahar “Navbahor” MFY hududida joylashgan “Ma’muriy bino”ni ilovadagi chizmaga asosan haqiqatda egallagan qurilish maydoni 345,6 m^2, foydali maydoni 260,0 m^2, umumiy maydoni 0,073 gektar A1724401003/1-raqamli

yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov)ga bino-inshootlarga va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) bino-inshootlarga va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari R.Boboyev, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Mahmudaliyev**